

## Joriy yilning 26-may kuni TIQXMMI Qarshi filialida bo'lib o'tgan talabalar festivalida filialning mingga yaqin yoshlari ishtirok etdi

Filial talabalari o'rtasida o'tkazilgan "Talabalar bahori - 2021" festivalida "Etti yurak" hamda "Agrozamin" jamoalari sakkizta shart bo'yicha o'zaro bellashdi. Festivalda ikki jamoaning quvnoqlar va zukkolar jamoalarining sahnaviy chiqishlari namoyish etildi. Festival yakuniy taqdirlash marosimida "Agrozamin" jamoasining ishtirochilariga:

"Eng yaxshi badiiy o'qish";

"Eng yaxshi vokal qo'shiq ijrosi";

"Eng yaxshi teatr sahna ko'rinish".

"Etti yurak" jamoasining ishtirokchilariga:

"Eng yaxshi raqs ijrosi";

"Eng yaxshi quvnoq jamoa" nominatsiyalari bo'yicha sovrindorlar aniqlandi.



Festival bosh sovrinini "Etti yurak" jamoasi egalladi va 1-darajali diplom hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rliklarga javoban filial yoshlari ham o'zining samarali mehnati, ta'limdagi muvaffaqiyatlari, sport sohasidagi olamshumul g'alabalari bilan munosib javob berishmoqda, — dedi festivalda so'zga chiqqan filial Yoshlar ittifoqi Kengashi boshlang'ich tashkilot yetakchisi O'rın To'xtaev yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo'lgan vatandar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish yo'nalishida o'tkazilgan festivallar ham muhim ahamiyat kasb etadi.



Mazkur "Talabalar bahori - 2021" festivali navqiron avlodni ona-Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va fidoyilik ruhida tarbiyalash, shuningdek, milliy-madaniy merosimizni targ'ib etish, san'at ixlosmandlarini bahramand qilishga qaratilgani bilan yanada e'tiborlidir. Ushbu festival bizning ijodiy mahoratimizni yanada oshirib, kelgusida nufuzli tanlovlarda muvaffaqiyatlari qatnashishimizga xizmat qiladi. Bugun talabalar festivalida erishgan yutuqlarim uchun filial rahbariyatining diplom va esdalik sovg'alari bilan bilan taqdirlandim deydi festival ishtirokchisi Dilorom Murtazaeva. Bugungi festival haqiqiy shouga aylanib ketdi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**